

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi
UrDPI Pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi
gulnozaismoilova758@gmail.com
DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22006305>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida pedagogning samarali muloqot qilishi, o‘z fikrini aniq va izchil ifodalashi, axborotni turli shakllarda yetkazishi, tinglash, fikr almashish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada videokonferensiya, ta’lim platformalari, onlayn munozaralar, multimedia vositalari, elektron portfolio va hamkorlikka asoslangan raqamli texnologiyalarning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishda kommunikativ faoliyat, qayta aloqa va refleksiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi asoslangan. Raqamli vositalarni pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llash bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak pedagog, kommunikativ kompetensiya, raqamli ta’lim, raqamli ta’lim vositalari, raqamli kommunikatsiya, pedagogik muloqot, 4K kompetensiyalar, hamkorlik, refleksiya, ta’lim texnologiyalari.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические возможности использования цифровых образовательных средств в развитии коммуникативной компетентности будущих педагогов. В условиях цифровой образовательной среды особое значение приобретают способность педагога эффективно взаимодействовать с участниками образовательного процесса, ясно и последовательно выражать свои мысли, воспринимать и анализировать информацию, осуществлять обратную связь и организовывать совместную деятельность. Анализируется роль видеоконференций, образовательных платформ, онлайн-дискуссий, мультимедийных средств, электронного портфолио и цифровых инструментов совместной работы в формировании коммуникативных навыков будущих педагогов. Обоснована необходимость интеграции цифровых средств с коммуникативными заданиями, дискуссиями, проектной деятельностью и рефлексией. Подчеркивается, что целенаправленное использование цифровых образовательных ресурсов способствует развитию профессиональной и цифровой коммуникативной компетентности будущего педагога.

Ключевые слова: будущий педагог, коммуникативная компетентность, цифровое образование, цифровые образовательные средства, цифровая коммуникация, педагогическое общение, компетенции 4К, сотрудничество, рефлексия, образовательные технологии.

Abstract. The article examines the pedagogical potential of using digital educational tools to develop the communicative competence of future teachers. In the context of a digital learning environment, the ability of teachers to communicate effectively, express ideas clearly and coherently, process and exchange information, provide feedback, and organize collaborative activities has become increasingly important. The article analyzes the role of videoconferencing, educational platforms, online discussions, multimedia tools, electronic portfolios, and digital collaboration tools in developing the communicative skills of future teachers. Particular attention is paid to the integration of digital tools with communicative tasks, discussions, project-based activities, feedback, and reflection. The study emphasizes that purposeful and pedagogically appropriate use of digital educational resources contributes to the development of future teachers’ professional and digital communication competence.

Keywords: future teacher, communicative competence, digital education, digital educational tools, digital communication, pedagogical communication, 4C competencies, collaboration, reflection, educational technologies.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi pedagog kasbiy faoliyatining mazmuni va unga qo‘yiladigan kompetensiyaviy talablarning o‘zgarishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy pedagogdan nafaqat o‘z fanini chuqur bilish, balki ta’lim oluvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, axborotni turli raqamli vositalar orqali yetkazish, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va raqamli muhitda pedagogik muloqot madaniyatiga rioya qilish talab etiladi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha kompetensiyalar tizimida ham pedagoglarning raqamli texnologiyalardan ta’lim jarayonida maqsadli foydalanishiga alohida e’tibor qaratilgan[1;20-b]. Shu jihatdan bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyani raqamli ta’lim vositalari bilan uyg‘un holda rivojlantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya bo‘lajak pedagogning kasbiy faoliyatida o‘z fikrini aniq, izchil va tushunarli ifodalashi, suhbatdoshni tinglashi, savol-javob olib borishi, fikr almashishi, pedagogik vaziyatlarda tegishli muloqot usullarini tanlashi va hamkorlikni tashkil eta olishi bilan namoyon bo‘ladi. Pedagogik muloqotning mazmuni raqamli texnologiyalar rivoji bilan yanada kengayib, an’anaviy yuzma-yuz muloqot bilan bir qatorda videokonferensiya, elektron pochta, ta’lim platformalari, forumlar, virtual doskalar va boshqa raqamli vositalar orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiyani ham qamrab olmoqda. Yevropa Komissiyasining DigCompEdu doirasida pedagogning raqamli kompetensiyasi tarkibida tashkilot ichidagi kommunikatsiya, professional hamkorlik, raqamli muloqot va hamkorlikni tashkil etish kabi yo‘nalishlarning alohida belgilanishi ushbu jarayonning zamonaviy ta’limdagi ahamiyatini ko‘rsatadi[2;20-b].

Raqamli ta’lim vositalari bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ faolligini oshirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bunda talaba tayyor axborotni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki axborotni izlash, qayta ishlash, yaratish, taqdim etish va boshqalar bilan muhokama qilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Masalan, videokonferensiya vositalari orqali talabalar pedagogik mavzular bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazishi, munozaralarda qatnashishi va savollarga javob berishi mumkin. Bunday faoliyat og‘zaki nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda fikrni qisqa va mazmunli ifodalash, tinglovchilar bilan aloqa o‘rnatish va tezkor javob qaytarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Onlayn forumlar va ta’lim platformalarida tashkil etiladigan munozaralar esa yozma kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Talaba muayyan pedagogik muammo bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarini yozma ravishda bayon qiladi, boshqa talabalar fikrlarini o‘rganadi va ularga asoslangan munosabat bildiradi. Bunday faoliyatda talabaning fikrni dalillar bilan asoslash, boshqa qarashlarni tahlil qilish va konstruktiv fikr-mulohaza bildirish ko‘nikmalari shakllanadi. DigCompEdu modelida ham ta’lim oluvchilarga raqamli texnologiyalar orqali kommunikatsiya va hamkorlik qilish imkonini beradigan o‘quv faoliyatlarini tashkil etish pedagogning muhim raqamli kompetensiyalaridan biri sifatida ko‘rsatilgan [2;45-b]. Raqamli ta’lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning yana bir muhim jihati hamkorlikka asoslangan faoliyatni tashkil etish bilan bog‘liq. Bo‘lajak pedagoglar raqamli platformalar orqali guruhli loyihalar ishlab chiqishi, taqdimotlar tayyorlashi, umumiy muammolarni muhokama qilishi va o‘zaro fikr almashishi mumkin. Bunda kommunikatsiya va hamkorlik bir-birini to‘ldiruvchi kompetensiyalar sifatida shakllanadi.

4K kompetensiyalarining kommunikatsiya, hamkorlik, kreativlik va tanqidiy fikrlashdan tashkil topishi zamonaviy ta’limda mazkur ko‘nikmalarining o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirilishi zarurligini ko‘rsatadi [3,594–597-b]. Raqamli vositalardan foydalanishda multimedia texnologiyalarining imkoniyatlari ham muhimdir. Bo‘lajak pedagogning video, audio, elektron taqdimot yoki interaktiv material tayyorlashi axborotni turli kommunikativ kanallar orqali yetkazish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, talaba muayyan pedagogik mavzuda videodars tayyorlash jarayonida nafaqat mavzuning mazmunini o‘zlashtiradi, balki uni auditoriyaga qanday tushuntirish, qanday nutqiy vositalardan foydalanish, qaysi vizual materiallarni tanlash va tinglovchilar e’tiborini qanday jalb qilish haqida ham mustaqil qaror qabul qiladi.

Bunday faoliyat kommunikativ kompetensiyaning amaliy xarakterini kuchaytiradi. Chunki kompetensiya faqat nazariy bilimga ega bo‘lish emas, balki mavjud bilim va ko‘nikmalarni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay olish orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli oliy pedagogik ta’limda raqamli vositalardan foydalanish jarayoni oddiy axborot uzatish bilan cheklanmasdan, talabaning faol kommunikativ faoliyatini ta’minlaydigan topshiriqlar bilan boyitilishi lozim.

Raqamli ta’lim muhitida qayta aloqa mexanizmining mavjudligi ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun muhim shartlardan biridir. Talaba bajargan topshirig‘i, taqdimoti yoki videomateriali bo‘yicha o‘qituvchi va tengdoshlaridan fikr-mulohaza oladi. Olingan fikrlar asosida o‘zining nutqiy faoliyati, muloqot uslubi va axborotni yetkazish sifatini tahlil qiladi. Shu tariqa raqamli muhitda

kommunikativ faoliyat refleksiya bilan uyg'unlashadi. DigCompEdu doirasida ham pedagogning o'z raqamli-pedagogik faoliyatini muntazam refleksiv baholashi va takomillashtirishi muhim kompetensiya sifatida qaraladi [2, 23–24-b].

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning mavjudligi o'z-o'zidan kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishini ta'minlamaydi. Asosiy masala raqamli vositaning mavjudligida emas, balki undan qanday pedagogik maqsadda foydalanilishidir. Agar ta'lim platformalari faqat ma'lumot joylashtirish va tayyor materialni taqdim etish vositasi sifatida ishlatilsa, talabning kommunikativ faolligi cheklangan holda qolishi mumkin. Aksincha, raqamli vositalar muammoli vaziyatlar, munozaralar, loyihalar, guruhli topshiriqlar, taqdimotlar va refleksiv faoliyat bilan uyg'unlashtirilsa, kommunikativ kompetensiyaning shakllanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish jarayonini “raqamli vosita – kommunikativ topshiriq – hamkorlikdagi faoliyat – qayta aloqa – refleksiya” izchilligi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur ketma-ketlikda raqamli vosita maqsad emas, balki kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vosita sifatida qaraladi. Talaba esa ushbu vosita yordamida fikr bildiradi, savol beradi, javob qaytaradi, boshqa ishtirokchilar bilan hamkorlik qiladi va o'z kommunikativ faoliyatini baholaydi.

Raqamli kommunikatsiya jarayonida pedagogik madaniyat masalasiga ham e'tibor qaratish zarur. Bo'lajak pedagog elektron muloqotda axborotni to'g'ri va aniq yetkazish, suhbatdoshlarning fikrini hurmat qilish, raqamli muhitda axloqiy me'yorlarga rioya qilish, mualliflik huquqini hisobga olish va shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. DigCompEdu modelida ham raqamli texnologiyalardan kommunikatsiya va hamkorlik maqsadida samarali hamda mas'uliyatli foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [2, 44–46-b].

Shuningdek, kommunikativ kompetensiyaning boshqa 4K kompetensiyalari bilan o'zaro aloqasi ham muhim metodik ahamiyatga ega. Talaba yangi pedagogik g'oyani yaratish jarayonida kreativlikni namoyon etsa, uni baholash va dalillar asosida himoya qilishda tanqidiy fikrlashdan foydalanadi, o'z qarashlarini boshqalarga yetkazishda kommunikatsiyaga, umumiy natijaga erishishda esa hamkorlikka tayanadi. Shu sababli raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani alohida holda emas, balki 4K kompetensiyalari bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish bo'lajak pedagogning kompleks kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi ta'lim jarayonida sun'iy intellekt, interaktiv platformalar va boshqa raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Biroq texnologiyadan foydalanish insonlararo muloqotning o'rnini egallamasligi kerak. Aksincha, raqamli vositalar real pedagogik muloqotni boyitishi, turli kommunikativ vaziyatlarni modellashtirishi, talabning o'z faoliyatini tahlil qilishi va individual rivojlanish yo'nalishini belgilashiga yordam berishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, raqamli ta'lim vositalarini kommunikativ topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim shartlaridan biri bo'lib, mazkur yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniqlash, ularning rivojlanish mezonlarini ishlab chiqish va raqamli ta'lim muhitida samarali metodik mexanizmlarni belgilash masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

Xulosa. Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasiga qo'yiladigan talablarni kengaytirmoqda. Zamonaviy pedagog o'z fikrini aniq va izchil ifodalash, ta'lim oluvchilarni tinglash, fikr almashish, hamkorlikni tashkil etish bilan bir qatorda, raqamli platformalar va kommunikatsiya vositalaridan pedagogik maqsadlarda samarali foydalana olishi zarur. Videokonferensiyalar, onlayn munozaralar, ta'lim platformalari, multimedia vositalari, elektron portfolio va hamkorlikka asoslangan raqamli vositalar talabalarning og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va o'z fikrini asoslash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli vositalardan foydalanish jarayonida kommunikativ topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati, guruhli ish, qayta aloqa va refleksiyaning uyg'un tashkil etilishi alohida ahamiyatga ega. Bunday yondashuv talabning faqat texnologik ko'nikmalarini emas, balki pedagogik muloqot madaniyati, hamkorlik, tinglash, fikr bildirish va o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Kommunikativ kompetensiyaning kreativlik, tanqidiy fikrlash va hamkorlik bilan integratsiyasi esa bo'lajak pedagoglarning 4K kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. *ICT Competency Framework for Teachers. Version 3.0*. Paris: UNESCO, 2018.
- 68 p.

2. Redecker C. *European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu*. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. — 95 p. DOI: 10.2760/159770.
3. Jumaeva M. *Developing Collaboration, Communication, Critical Thinking, and Creativity within the Framework of the 4C Model // International Multidisciplinary Journal of Research and Development*. 2025. -Vol. 4, No. 7. - P. 594–597.
4. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // *Teachers College Record*. 2006. - Vol. 108, No. 6. — P. 1017–1054.
5. Anderson T. *The Theory and Practice of Online Learning*. -2nd ed. - Athabasca: Athabasca University Press, 2008.